



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Boxodirov Ixtiyor TURKISTON HARBIY OKRUGINING ILI O‘LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGINI O‘RNATISHGA QARATILGAN FAOLIYATI.....	5
2. Bo‘tayev Jonibek XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TIBBIY XIZMAT HOLATI.....	10
3. Djumamurotov G‘ulom XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING OROL BO‘YIGA KO‘CHIB JOYLASHISHI.....	16
4. Ergasheva Xusnida NEFT SANOATINING MODDIY-TEXNIK BAZASI VA INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISH.....	27
5. Кобзева О.П. СКАНДИНАВСКИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛИ ШЕЛКОВОГО ПУТИ.....	34
6. Rahmatov Muhridin TATAR ZIYOLILARINING TURKISTON TA‘LIM TIZIMINI YO‘LGA QO‘YILISHIDAGI ISHTIROKI VA UNING NATIJALARI.....	40
7. Ruzikulova Maftunaxon MARKAZIY FARG‘ONA SUV XO‘JALIGINING MOLIYAVIY TA‘MINOTI VA UNDAGI MUAMMOLAR (1950-1991-yillar).....	46
8. Саттаров Акрам XIX АСР ЎРТАЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТ.....	52
9. Tishabayev Alisher O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MALAKALI SPORTCHI MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2019-yillar).....	58
10. Toliboyeva N.O. O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY SOHANING YUKSALISHI.....	66
11. Хайдаров Муродилла ФРЕДЕРИК СТАРР. МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ.....	71
12. Baxtiyor Yuldashev, Xusnida Ergasheva SOVET DAVLATI HUKMRONLIGI YILLARIDA O‘LKADA NEFT SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR.....	81



ISSN: 2181-9599

www.tadqiqot.uz

JOURNAL OF

LOOK TO THE PAST

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

Xusnida Ergasheva

Toshkent davlat transport universiteti
Xalqaro ommaviy huquq kafedrasini v.b.dotsent
E-mail: ergasheva.xusnida@bk.ru

НЕФТ СANOATINING MODDIY-TEXNIK BAZASI VA INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISH

For citation: Xusnida Ergasheva. DEVELOPMENT OF THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE AND INFRASTRUCTURE OF THE OIL INDUSTRY. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 4, pp.27-33



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15380650>

ANNOTATSIYA

Maqolada sovet davlat hukmronligi yillarida neft sanoatining moddiy-texnik bazasi va infrastrukturasini rivojlantirish tarixini o'rganish orqali O'zbekiston neft sanoatini rivojlanishi va bu bilan bog'liq bo'lgan masalalar yoritilgan. Neft sanoatining rivojlanishida moddiy-texnik bazaning o'rni va ahamiyati bu sohaning barcha tarmoqlari bilan bog'liqligi o'rganilgan. Maqola O'zbekiston Milliy Davlat arxivi fondlaridagi arxiv xujjatlari, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, monografiya, risolalar asosida Farg'ona vodiysidagi neft sanoati tarixiga bag'ishlanib, mavzuga doir xulosalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: neft sanoatining moddiy-texnik bazasi, neftni qayta ishlash, neft qazib olish sur'atlari dinamikasi, sanoatning barcha sohalarini yuksaltirish, mashinasozlik va transport sohalarining rivojlanishi, xalq xo'jaligi.

Хуснида Эргашева,

Исполняющая обязанности доцента кафедры
международного публичного права
Ташкентский государственный транспортный университет
E-mail: ergasheva.xusnida@bk.ru

РАЗВИТИЕ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЫ И ИНФРАСТРУКТУРЫ НЕФТЯНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается развитие нефтяной промышленности Узбекистана и связанные с этим вопросы путем изучения истории развития материально-технической базы и инфраструктуры нефтяной промышленности в годы правления Советского государства. Роль и значение материально-технической базы в развитии нефтяной промышленности были изучены в увязке со всеми отраслями этой отрасли. Статья посвящена истории нефтяной промышленности Ферганской долины на основе архивных документов, научных

исследований зарубежных и отечественных исследователей, монографий, брошюр, хранящихся в фондах Национального государственного архива Узбекистана, и содержит выводы по теме.

Ключевые слова: материально-техническая база нефтяной промышленности, нефтепереработка, динамика темпов добычи нефти, стимулирование всех сфер промышленности, развитие машиностроения и транспортной отрасли, национальная экономика.

Khusnida Ergasheva,
Acting Associate Professor, Department of International Public Law
Tashkent State Transport University
E-mail: ergasheva.xusnida@bk.ru

DEVELOPMENT OF THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE AND INFRASTRUCTURE OF THE OIL INDUSTRY

ABSTRACT

The article examines the development of the oil industry in Uzbekistan and related issues by studying the history of the development of the material and technical base and infrastructure of the oil industry during the rule of the Soviet state. The role and importance of the material and technical base in the development of the oil industry were studied in conjunction with all branches of this industry. The article is devoted to the history of the oil industry of the Ferghana Valley based on archival documents, scientific research by foreign and domestic researchers, monographs, pamphlets stored in the collections of the National State Archive of Uzbekistan, and contains conclusions on the topic.

Index Terms: material and technical base of the oil industry, oil refining, dynamics of oil production rates, stimulation of all industries, development of engineering and transport industry, national economy.

1. Dolzarbligi:

Neft va gaz sanoati har bir mamlakatning asosiy ishlab chiqarish sohalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda neft va gaz sanoati sanoatning boshqa tarmoqlarini rivojlanishi uchun uzviy bog‘liqlikda xizmat ko‘rsatadi. Neft yoqilg‘i-energetikasi majmui sifatida dastlabki energiya ta‘minotchisi hisoblanib, uning tarkibi neft va gaz sanoatida qazib olinadigan uglevodород xomashyosidan iboratdir. Bugungi kunda dunyo energetika kon‘yunkturasida neft va tabiiy gaz energiyaning asosiy manbalari hisoblanadi va bu ikki resurs jahonning ko‘pchilik mamlakatlari uchun yoqilg‘i-energetika balansining asosiy komponenti bo‘lib qolmoqda.

Maqolada neft sanoatining moddiy-texnik bazasi va infrastrukturasini rivojlantirish masalasi alohida o‘rganilgan hamda mazkur masala yuzasidan bir qator tarixchi olimlar va soha mutaxassislarining bildirgan fikrlari, tadqiqotlari natijasida yaratilgan risola, monografiyalari orqali mavzuni yoritishni maqsad qilib olingan.

2. Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Neft sanoatining moddiy-texnik bazasi va infrastrukturasini rivojlantirish tarixini o‘rganishda sovet davrida va mustaqillik yillarida nashr qilingan mavzuga oid ilmiy risola va monografiyalar hamda ilmiy maqolalarda keltirilgan ma‘lumotlardan foydalanildi. Shu jumladan sovet davrida nashr qilingan С.К.Зиядуллаев “Промышленность Узбекистана и основные экономические проблемы ее развития”, Ш.Н.Ульмасбаев “Промышленное развитие советского Узбекистана”, С.К.Зиядуллаев “Индустрия советского Узбекистана” М.Махмудов “Farg‘ona vodiysida neft va gaz sanoatining rivojlanishi”, К.Н.Бедринсев, В.А.Десыачиков “O‘zbekiston sanoati 30 yil ichida”, I.M.Хайдаров “O‘zbekiston sanoatining sovet ittifoqi yagona xalq xo‘jaligi kompleksidagi o‘rni” (1945-1991 yillar) nomli monografiyalari va В.Л.Некрасов “Оценка реформы управления нефтегазовой

промышленностью СССР (1957-1963 гг.)”, А.Е.Ланцов Инфраструктура: понятие, виды и значение, Sh.V.Vahobov “Neft va gaz sanoatida ishlab chiqarishni resurslardan foydalanish usullarining ilmiy nazariy asoslari” nomli ilmiy maqolalar va mustaqillik yillarida nashr qilingan A.K.Rahimov “O‘zbekiston neft-gaz konchilari qissasi” nomli risolasida, O‘zbekiston milliy arxivi fondlarida keltirilgan ma’lumotlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologiyasi. Ushbu maqolada sovet davlati hukmronligining dastlabki yillarida Farg‘ona vodiysidagi neft sanoati tarixini o‘rganishda qiyosiy, tahliliy usullardan foydalanib, mavzuni bir nechta omillar asosida yoritib berildi. Mazkur masalani o‘rganishda mavzuga oid bo‘lgan risola, monografiya, ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanilgan holda xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

3. Tadqiqot natijalari:

Neft va gaz sanoati og‘ir hamda murakkab ish jarayonlarning ketma-ketligidan iborat xisoblanadi. Jumladan, “neft va gaz sanoati deganda qidiruv ishlari, quduqning qurilish ishlari, qazib olish ishlari, transport orqali tashish faoliyati, neftni qayta ishlash, neftni mahsulotlarini iste’molchilarga etkazish singari ishlar majmui tushuniladi. Ushbu ish jarayonlarini bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Ushbu zanjir o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, neft va gaz sanoatida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi. Neft va gaz sanoatida ishlab chiqarilgan xom ashyo bazasining tarkibi jahon iqtisodiyotida doimiy ravishda talab yuqori bo‘lgan resurslardan hisoblanadi[1].

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishni rivojlantirishda ishlatilayotgan asosiy vositalar, aylanma mablag‘lar birgalikda ularning moddiy-texnika bazasi deb yuritiladi. Bunga ishlab chiqarish jarayonidagi barcha vositalar, texnikalar, ishchilar va boshqalarni kiritish mumkin. Infrastruktura (keying o‘rinlarda infratuzilma) tuShunchasini aniq belgilash qiyinligiga qaramay, bu atama keng tarqaldi. Dastlab infratuzilma atamasi (lotincha infra - "pastda", "ostida" va lotincha structura - "tuzilma", "joylaShuv") harbiy sohada keng tarqaldi, bu o‘rinda tuShuncha statsionar ob‘ektlar va individual tizimlar, qurolli kuchlarni joylashtirish, harbiy harakatlarni o‘tkazish va qo‘shinlarning jangovar va tezkor tayyorgarligini ta‘minlash uchun asos bo‘lgan tuzilmalarni anglatardi[2]. Keng ma’noda infratuzilma – bu jamiyatdagi kundalik hayot va iqtisodiy faoliyatni ta‘minlovchi asosiy tuzilmalar to‘plami. yo‘llar, elektr va suv ta‘minoti tizimlari, telekommunikatsiya tizimlari va jamoat transporti kiradi[3]. Infratuzilma - bu “muammoni (vazifani) hal qilish uchun asosni tashkil etuvchi va (yoki) ta‘minlovchi o‘zaro bog‘langan xizmat ko‘rsatish tuzilmalari majmuasi. Infratuzilma — xalq xo‘jaligining faoliyat yuritishi uchun umumiy shart-sharoitlarni ta‘minlovchi tarmoqlar majmui: yo‘l, aloqa, transport, ta‘lim va boshqalar ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalar mavjud. Ishlab chiqarish infratuzilmasi – moddiy ishlab chiqarishni ta‘minlovchi infratuzilma: temir va avtomobil yo‘llari, suv ta‘minoti, kanalizatsiya va boshqalar[4]. Bunga e‘tibor qaratiladigan bo‘lsa, infrastruktura ma’lum bir soha faoliyatining bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida tushunish mumkin. Neft va gaz sanoati, neft va gaz konlarini qidirish, burg‘ulash, qazib chiqarish, uglevodorodlarni qayta ishlash, neft mahsulotlarini ishlab chiqarish, neftkimyo va kimyo usunalarini ishlab chiqarish hamda iste’molchilarni neft mahsulotlari bilan ta‘minlashgacha bo‘lgan barcha neft va gaz operatsiyalarini qamrab oladi.

Neft va gaz sanoatida bugungi kunda 30 ga yaqin ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, ular, avtobenzin, dizel yoqilg‘isi, aviakerosin, har-xil turdagi moylar, mazut, bitum, har-xil turdagi polietilen, tovar xoldagi tabiiy va suyultirilgan gaz, neftkimyo va kimyo usunalarini, suyultirilgan gaz uchun balonlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi[5]. Bu esa neft sanoatining o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tuzilmasini belgilab beradi. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotlar sanoatning boshqa tarmoqlarini rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Jumladan, XX asrning boshlarida, ya’ni 1906-yilda bunyod etilgan neftni qayta ishlash zavodida qayta ishlangan mahsulotlardan temir yo‘llar, paroxod, avtomobillar, samolyot, qishloq xo‘jaligi texnikalari uchun foydalanilishi bunga misol bo‘la oladi. Masalan, 1929-yilda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda yerlarni shudgor qilish, yerga ishlov berish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun neft mahsulotlaridan respublika bo‘yicha jami 1192 ta traktor va texnikalarga, 5906 tonna kerosin, 591 tonna yog‘, 119,6 tonna benzin, shundan, Andijon viloyatida 302 ta traktor va texnikalarga, 1520 tonna kerosin, 152 tonna yog‘, 30,5 tonna benzin, Farg‘ona viloyatida 201 ta traktor va texnikalarga, 1015 tonna kerosin, 101 tonna yog‘, 20,5 tonna benzin, Toshkent viloyatida 258 ta

traktor va texnikalarga, 1240,5 tonna kerosin, 124 tonna yog‘, 25 tonna benzin, Samarqand viloyatida 154 ta traktor va texnikalarga, 765 tonna kerosin, 76,5 tonna yog‘, 16 tonna benzin, Buxoro viloyatida 43 ta traktor va texnikalarga, 208 tonna kerosin, 21 tonna yog‘, 4,2 tonna benzin, Qashqadaryo viloyatida 55 ta traktor va texnikalarga, 273 tonna kerosin, 27 tonna yog‘, 5,5 tonna benzin, Surxondaryo viloyatida 43 ta traktor va texnikalarga, 100 tonna kerosin, 21 tonna yog‘, 4,2 tonna benzin, Xorazm viloyatida 32 ta traktor va texnikalarga, 150 tonna kerosin, 15 tonna yog‘, 3 tonna benzin[6] sarf qilindi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, neft mahsulotlaridan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, paxtachilik mehanizmini shakllantirish uchun keng foydalanildi. Bundan tashqari sanoatning boshqa tarmoqlarini rivojlanishi uchun ham neft mahsulotlaridan foydalanildi. Masalan, 1933-yilda Xalq komissarlari soveti tomonidan o‘tkazilgan yig‘ilishda Farg‘ona viloyati Beshariq tumanidagi “8-mart” nomidagi Beshariq paxta tozalash zavodi direktori va to‘qimachilik birlashmasi direktorlari O‘zbekiston SSR Xalq komissarlariga shaxsan murojaat bilan chiqqan. Unda ushbu zavodlarda yoqilg‘i mazut moyi etishmasligi sababli, bir necha kunga zavodlar ish faoliyati to‘xtab qolganligini ma‘lum qilindi. Shundan so‘ng tekshiruvlar o‘tkazildi. Natijada zavod yanvar oyi uchun neft mahsulotlari olmaganligi ma‘lum bo‘ldi, biroq qo‘mita tomonidan zavod uchun 19 tonna neft va 28 tonna mazut berilishi belgilangandi. Lekin zavod ma‘muriyati bu masalani yoqilg‘i qo‘mitasiga o‘z vaqtida ma‘lum qilmaganligi sababli yoqilg‘ining tugashi natijasida zavod bir necha kun ish faoliyatini to‘xtatganligi ma‘lum bo‘ldi. yig‘ilishda bu masalaga jiddiy e‘tibor qaratilishi kerakligi ta‘kidlab o‘tildi. Bunga mas‘ul bo‘lgan shaxslar javobgarlikka tortilishi belgilandi[7. 13-varaq.]. Bundan ko‘rinib turibdiki, neft mahsulotlaridan engil sanoatda to‘qimachilik korxonalarida, paxta tozalash zavodlarida foydalanilgan. Shuning uchun neft va neft mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib bordi. Bunda yangi neft konlarini aniqlash, yangi texnikalardan foydalanishga e‘tibor qaratildi.

Shuningdek, respublikadagi tabiiy boyliklarni o‘rganish, aniqlash geologik tadqiqotlar o‘tkazish ishlari sovet hokimiyati tashkil etilgan dastlabki yillardanoq amalga oshirildi. Dastlab qidiruv-razvedka ishlari ayrim mutaxassislar tomonidan yakka tartibda olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik, fondali qazilmalarni qidirib topish va samarali o‘rganish borasida kompleks ishlarni amalga oshiradigan maxsus yirik ilmiy, ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari tashkil etildi hamda ular muntazam moliyalashtirib borildi. Olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va geologiya-qidiruv ishlarining hajmi yildan yilga kengayib bordi. Respublika tabiiy boyliklarini qidirish sohasida olib borilgan tashkiliy ishlar bu boyliklarni o‘rganish hamda o‘zlashtirish sohasida katta natijalarga erishishga imkon yaratdi. Natijada, O‘zbekistonda foydali kazilmalarning ko‘pgina konlari ochilib, ulardan sotsialistik xo‘jalikning moddiy xom ashyo bazasi sifatida uzoq yillar foydalanildi. Shu davr ichida sovet hokimiyati tomonidan ajratilgan mablag‘ va respublikaga safarbar etilgan ko‘plab geologiya-qidiruv guruhlarining chuqur tekshirishi natijasida respublikada sanoatning rangli metallurgiya, neft, ko‘mir, tabiiy gaz qazib olish sohasi sezilarli rivojlandi[8].

Masalan, 1932-yilda Butunitifoq Geologiya va qidiruv ilmiy tekshirish institutining (ВНИГРИ) ochilishi munosabati bilan Farg‘ona vodiysida, Surxondaryo viloyatida va Tojikiston SSRda neft hamda gaz qidiruv ishlari amalga oshirildi. Shu davrdan boshlab geologik tadqiqot ishlari va neftni burg‘ulashni yangi usullari qo‘llanila boshlandi. Natijada 1934-yilga kelib, Surxondaryo viloyatining “Xovdog‘”, Farg‘ona vodiysining “Neftobod” maydonlaridan neft fontani otildi[9].

Ayniqsa, ikkinchi jahon urushi yillarida, neft sanoati sohasida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Urush maydonida bo‘lgan neft sanoatini, neftni qayta ishlash zavodlarining asbob uskunalarini, malakali mutaxassislarni, o‘quv yurtlarini ko‘chirib keltirilishi ish samaradorligini oshirishga sabab bo‘ldi. Urush yillarida Batumi neftni qayta ishlash zavodining asbob-uskunalari Oltariq (Vannovskiy) zavodiga ko‘chirib keltirildi. Urush tufayli neft mahsulotlariga ayniqsa yoqilg‘iga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi, ko‘p miqdorda neftni qayta ishlashga sabab bo‘lgan. Ikkinchi jahon urushigacha bo‘lgan vaqtda Oltariq (Vannovskiy) neftni qayta ishlash zavodida yiligi 176 ming tonna neft qayta ishlangan bo‘lsa, urush yillarida undan yarim hissa oshirib ishlash talab qilinardi[10]. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda neft sanoatining barcha tarmoqlari rivojlantirildi. Neft sanoati tarmoqlari tarkibiga geologiya-qidiruv tashkilotlari, qurilish trestlari,

ikkita neft qazib olish tresti, neftni qayta ishlash zavodi, ozokerit ishlab chiqarish zavodi, neft mashinasozligi zavodi va neft uskunalarini ta'mirlash zavodi kabilar kirdi[11]. Ushbu tarmoqlarning har biriga alohida e'tibor qaratildi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan korxonalarni ishga tushirilishi bilan respublika sanoatida 100 dan ortiq tarmoq rivojlandi, korxonalar, ko'pincha og'ir industriya korxonalarining asbob-uskunalari to'la yoki qisman ko'chirib keltirilgan bo'lsada, qora metallurgiya, ko'mir sanoati, mashinasozlik hamda metall ishlash sanoat korxonalari aynan ana Shu davrda vujudga keldi. 1946-yil 18-martda SSSR Oliy Soveti tasdiqlagan SSSR xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirishning 1946-1950-yillarga mo'ljallangan besh yillik rejasi to'g'risidagi qonunda asosiy vazifa urushdan zarar ko'rgan rayonlarni qayta tiklash, sanoat hamda qishloq xo'jaligi taraqqiyotining urushdan oldingi darajasiga etib olish va undan "o'zib" ketish vazifasi belgilandi.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, neft sanoati tarmog'ini rivojlantirish uchun 1948-yilda tashkil etilgan "Sredneazneft" O'rta Osiyoda neft geologiya qidiruv ishlari bilan shug'ullandi. Olib borilgan geologiya qidiruv ishlari natijasida Farg'ona vodiysining O'zbekiston SSR hududiga qarashli qismida neft qazib olish hajmi 1950-yilda 1176 ming tonnaga yetkazildi[12].

Respublikada neft qazib olishni yanada ko'paytirish istiqbollari neft paydo bo'lishi va qidiruv ishlarining chuqurroq o'rganilishi bilan bog'liq hisoblanadi[13]. Shu sababli geologik qidiruv ishlarini yanada yaxshilash maqsadida bu sohaga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Neft sanoatining bir-biri bilan bog'liq bo'lgan geolorazvedka, geofizika neft qidirish ishlari bilan respublikada 1949-yilgacha "Kalilinneft" trestiga qarashli bo'lgan "Geologik qidiruv" idorasi shug'ullangan. Shu bilan birga Farg'ona vodiysi bo'yicha neft quduqlarini razvedka qilish ishlari uchun alohida "Farg'onaneft razvedka" tresti Farg'ona shahrida tashkil etildi. Ushbu trest 1949-yilda Farg'ona shahridan Qo'qon shahriga ko'chirildi. Bu trest ixtiyorida Farg'ona vodiysida joylashgan barcha maydonlarda geologik-qidiruv ishlari olib borilardi. Ushbu trest qaramog'ida bir nechta neft razvedkalar mavjud bo'lib, bularga quyidagilar Chung'ara posyolkasida joylashgan "Chung'ara neft razvedkasi", Rishton tumani markazida joylashgan "Shimoliy Rishton neft razvedkasi", Chimyon neftchilar shaharchasida joylashgan "Chuqur Langar neft razvedkasi", Farg'ona shahrida joylashgan "Avval neft razvedkasi", Quva tumanining Tolmozor qishlog'ida joylashgan "Tolmozor neft razvedkasi", Andijon viloyati Andijon tumanining Beshpanja qishlog'ida joylashgan "Shimoliy Olamushuk neft razvedkasi", bundan tashqari qo'shni Qirg'iziston Respublikasining Qo'chqor ota qishlog'ida joylashgan "Izboskan neft razvedkasi", Namangan viloyatining Uchqo'rg'on tumanida joylashgan "Maylisoy neft razvedkasi", Chortoq tumani markazida joylashgan "Chortoq neft razvedkasi", Pop tumanining Marguzar qishlog'ida joylashgan "Chust-Pop neft razvedkasi" kirardi.

Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida neft sanoatini rivojlantirilishida bu sohaga oid bo'lgan geofizika ishlarini yaxshi yo'lga qo'yilishi ham sabab bo'lgan. 1949-yilning 26-martidan SSSR Neft sanoati Ministrligining buyrug'i bilan neft sanoatini rivojlantirish uchun Qo'qon shahrida "SredAzneft" ishlab chiqarish birlashmasi tarkibida "Uzbekneftegeofizika" (UzGK) idorasi tashkil etildi. Ushbu yildan boshlab O'zbekistonda birinchi marta seysmik qidiruv ishlari ishlab chiqarishga joriy etildi va loyiha-reja topshiriqlari bo'yicha geofizika ishlari keng ko'lamda Farg'ona vodiysi va Surxon vohasida davom ettirildi.

1949-yildan seysmik qidiruv ishlarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi o'zini oqladi. 1949-1957-yillarda Avval, G'arbiy Polvontosh, Xonqiz, Sharqiy Avval, Xartum, Shimoliy Sox kabi neft va gaz konlari ochildi hamda ishga tushirildi. Markaziy Farg'ona megasinklinalini o'rganish maqsadida Markaziy Farg'ona №1-sonli quduq burg'ulandi va qimmatli ma'lumotlar olindi.

1949-1957-yillardagi geofizika ishlarida tematika, seysmik qidiruv, elektrorazvedka, gravirazvedka, magnitorazvedka, seysmokatraj, tajriba-uslubiy, kon-geofizika partiyalari faoliyat yuritgan bo'lib, ushbu ishlar O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Qozog'iston Respublikalarining hududlarida olib borildi. Asosiy geofizika ishlari Farg'ona vodiysida bajarilgan. 1950-yillarning o'rtalariga kelib SSSR hududida energiya iqtisodiyotini intensiv rekonstruktsiya qilish ishlari boshlandi. Energiya iqtisodiyoti yanada samarali joriy etilishi orqali mamlakatda

energiya resurslari, innovatsion texnologiyalar va energetika, transport, sanoat, uy-joy kommunal xo'jaligi, shuningdek, harbiy-sanoat komplekslari rivojlana boshladi. Energetika sohasini rekonstruktsiya qilish tarmoqlararo va sohaga kapital qo'yimalarni tarmoq ichida qayta taqsimlash orqali amalga oshirildi. 1950-yilning oxirlariga kelib elektroenergetika sanoatining rivojlanishi sodir bo'ldi. Shu yili KPSSning XXII s'ezdi Direktivalarida neft qazib olish va qayta ishlash hamda ishlab chiqarish yo'nalishidagi qabul qilingan qarorlar yanada mustahkamlandi[14].

1950-yillarning oxirlariga kelib sovet ittifoqida yoqilg'i-energetika kompleksida jiddiy qarama-qarshiliklar paydo bo'la boshladi. Bu hodisalarni bartaraf etish uchun yoqilg'i-energetika kompleksini va uning neft hamda gaz sanoatidagi asosiy tarmog'ini rivojlantirishning yangi strategiyasini ishlab chiqildi. Bu asosida yangi loyihalar amalga oshirilib, neft va gazning yangi konlarini aniqlash maqsadida butun ittifoq geologlariga ko'rsatmalar berildi. Mutahassis geologlarning olib borgan tadqiqotlari natijasida ko'plab yangi neft va gaz konlari aniqlanib, ishga tushirildi. Sovet ittifoqi miqyosida geologlarning olib borgan tadqiqotlari neft va gaz majmuasini kelajakdagi rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, birinchidan, Ural-Volga bo'yining eski hududlari, ikkinchidan, O'rta Osiyoning yangi hududlari, uchinchidan, G'arbiy neft va gaz resurslari ekanligini ko'rsatdi. 1965-yil 24-26-fevral kunlari Butunittifoq geologlar yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda SSSR Davlat geologiya qo'mitasi, SSSR Glavgaz va SSSR Davlat neft qazib olish sanoati qo'mitasining neft va gaz resurslariga nisbatan idoraviy manfaatlarini shakllantirish hamda respublika, partiya va xo'jalik rahbarlarining bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash kabilar qayd etildi[15]. Bu jarayonlar neft va gaz sanoatida ishlab chiqarishni nazorat qilish va ish sur'atlarini oshirishni nazarda tutadi.

1957-yilga kelib mamlakatda 37 ta ittifoq va ittifoqdosh respublikalarda sanoat hamda qurilish vazirliklari mavjud bo'lgan, ushbu vazirliklarni ixtisoslashuv jarayonlari yo'lga qo'yildi. Bu esa neft va gaz sanoati vazirliklarida ham yuz berdi. 1955-yilda SSSR neft sanoati vazirligining qurilish tashkilotlari negizida qurilish-montaj hajmining jadal o'sishini ta'minlash, neft ishlab chiqarish quvvatlarini, neftni qayta ishlash zavodlarini ishga tushirish va neft quvurlarini qurish uchun Qurilish vazirligi tashkil etildi. 1956-yilda gaz sanoatini rivojlantirish maqsadida SSSR vazirlar kengashi huzurida Gaz sanoati Bosh boshqarmasi (SSSR Glavgaz) tuzildi[16].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, neft sanoatining moddiy-texnik bazasi va infratuzilmasi neftni samarali ishlab chiqarish, qayta ishlash va iste'molchilarga etkazish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, texnologiya va mehnatni o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. Ushbu sohani rivojlantirish jarayonida moddiy-texnika bazasi va infratuzilmasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'zgarishlarning barchasi sovet hukumatining ma'muriy-buyruqbozlik tizimi doirasida amalga oshirildi, bunda tabiiy resurslarni o'zlashtirish asosiy ustuvor vazifa bo'ldi. Bu esa respublikaning haqiqatda xomashyo bazasiga aylanishiga olib keldi, qazib olingan neft va neft mahsulotlari esa markaziy hokimiyat manfaatlari yo'lida foydalanildi, bu bilan mahalliy rivojlanish va ijtimoiy dasturlarga sarmoya kiritish imkoniyatlarini cheklab qo'ydi. Neft sanoatini rivojlantirish uchun tashkil qilingan vazirliklar ularning qabul qilgan qarorlari sohaning faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shunday qilib, neft sanoati nafaqat iqtisodiy tizim, balki mahalliy resurslarni davlatning kengroq maqsadlariga bo'ysundiruvchi siyosiy tizim sifatida ham faoliyat ko'rsatdi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Vahobov Sh.V. Neft va gaz sanoatida ishlab chiqarishni resurslardan foydalanish usullarining ilmiy nazariy asoslari. "Ekonomika i sotsium" №11(90) 2021 www.iupr.ru. 872-b.
2. Ланцов А.Е. Инфраструктура: понятие, виды и значение // Статистика и экономика. 2013. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/infrastruktura-ponyatie-vidy-i-znachenie> (Murojaat sanasi: 22.09.2024).
3. Инфраструктура. Материалы Всемирного банка для учащихся. URL: <https://www.un.org/ru/youthink/infrastructure.shtml> (Murojaat sanasi: 22.09.2024).

4. Инфраструктура. URL: http://www.glossary.ru/cgi-bin/gl_find.cgi?ph=%E8%ED%F4%F0%E0%F1%F2%F0%F3%EA%F2%F3%F0%E0&action.x=0&action.y=0 (Murojaat sanasi: 22.09.2024).
5. Neft va gaz tarmog‘i. URL: <https://minenergy.uz/uz/lists/view/29> (Murojaat sanasi: 22.09.2024).
6. O‘zMA, R-837-fond, 11-ro‘yxat, 405-yig‘majild, 6, 13-varaqlar.
7. Xaydarov I.M. O‘zbekiston sanoatining sovet ittifoqi yagona xalq xo‘jaligi kompleksidagi o‘rni. (1945-1991 yillar). Monografiya.– Toshkent: 2019. – 143-144 b.
8. Muhidov A.R., Tojiyev T.T. O‘zbekistonning qora oltini. Monografiya.– Toshkent: Fan, 1972. – 24 b.
9. Rahimov A.K. O‘zbekiston neft-gaz konchilar qissasi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2004. – 98 b.
10. Bedrinsev K.N., Desyatchikov B.A. O‘zbekiston sanoati 30 yil ichida. – Toshkent: Fan, 1955. – 26 b.
11. Maxmudov M.Farg‘ona vodiysida neft va gaz sanoatining rivojlanishi. – Toshkent: O‘zbekiston “Bilim” jamiyati, 1975. – 4 b.
12. Зиядуллаев С.К. Индустрия советского Узбекистана –Ташкент:Узбекистан, 1984. – С.137.
13. Некрасов В.Л. Энергетическая политика СССР В 1961-1974 гг. Специальность 07.00.02 - Отечественная история, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук». – Сургут: 2007. – С.21.
14. Хромов Е.А. Формирование ведомственных и региональных интересов в нефтегазовом секторе СССР в 1957-1965 гг. (на примере освоения западно-Сибирской нефтегазовой провинции). – автореферат. Томск. – 2020. – С. 19.
15. Некрасов В.Л. Оценка реформы управления нефтегазовой промышленностью СССР (1957-1963 гг.). Историко-экономические исследования. 2009. Т. 10. № 1. С. 64.

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 4

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000